

AGROLANDSHAFTLARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Nazarov Maqsud Geldiyorovich

*Qarshi davlat universiteti Geografiya kafedrasida dotsenti.,
g.f.f.d. (PhD), Qarshi, O'zbekiston, mgnkd@mail.ru*

Annotatsiya: Maqolada insonning xo'jalik faoliyati, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi joylashuvi tabiiy sharoit bilan mujassamligi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Landshaft, agrolandshaft, antropogen landshaft, genofond, agromadaniy, geoteksistema, qishloq xo'jalik landshaft

ОСНОВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ АГРОЛАНДШАФТОВ

Nazarov Maqsud Geldiyorovich

доцент кафедры «География» Каршинский государственный университет,
кандидат д.ф.г.н.(PhD), Карши, Узбекистан, mgnkd@mail.ru

Аннотация: В статье описаны теоретические, научные и методические основы сельского хозяйства. При этом констатируется, что хозяйственная деятельность человека, размещение сельскохозяйственного производства и природные условия сочетаются.

Ключевые слова: Ландшафт, агrolандшафт, генофонд, антропогенный ландшафт, агрокультура, геотехсистема, агrolандшафт.

THE MAIN FEATURES OF AGROLANDSCAPES

Nazarov Maqsud Geldiyorovich

PhD, Associate Professor Department of Physical Geography,
Karshi State University, Karshi, Uzbekistan, mgnkd@mail.ru

Abstract: The article describes the theoretical, scientific and methodological foundations of agriculture. It is stated that human economic activity, placement of agricultural production and natural conditions are combined.

Keywords: Landscape, agrolandscape, gene pool, anthropogenic landscape, agricultural culture, geotechsystem, agrolandscape.

Qishloq xo'jaligi – iqtisodiyotning aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashga va sanoatning bir qancha tarmoqlari uchun xom ashyo olishga yo'naltirilgan tarmog'i bo'lib, u deyarli barcha mamlakatlarda mavjud bo'lgan eng muhim tarmoqlardan biridir. Qishloq xo'jaligining va uning tarkibiy qismlarining (dehqonchilik, o'simlikchilik, yem-xashak tayyorlash va chorvachilik) ahamiyati doimiy ravishda

o`sb bormoqda. Insonning xo`jalik faoliyati, qishloq xo`jalik ishlab chiqarishi joylashuvi tabiiy sharoit bilan mujassam aloqada va ayni paytda tabiiy sharoit inson faoliyati ta`siri ostida o`zgaradi. Bu o`zaro ta`sir natijasida qishloq xo`jalik landshaftlari – agrolandshaftlar tarkib topib, ularning maydoni kengayib, tuzilmasi ham ijobiy, ham salbiy holatda murakkablashib bormoqda.

Qishloq xo`jaligida yerdan foydalanish jarayonida tabiiy landshaftlarda bir komponentli va ko`p komponentli o`zgarishlar ularning tuzilmasida o`z ifodasini topmasdan qolmaydi. Pirovardida bu o`zgarishlar antropogen landshaftlarning eng qadimiy va eng keng tarqalgan turi bo`lgan agrolandshaftlarning muayyan turlarining shakllanishiga olib keladi. Hozirgi antropogen landshaftlar orasida qishloq xo`jalik ishlab chiqarish maqsadlarida foydalaniladigan, uning ta`sirida shakllanadigan va mavjud bo`ladigan agrolandshaftlar (ekinzorlar, bog`lar, o`tloqlar, yaylovlar) eng muhim va ko`p tarqalgan.

Agrolandshaftlar uchun butun tabiiy geosistemaning qayta shakllantirilishi xos. Dehqonchilik agrolandshaftlari uchun madaniy o`simliklarning bir yoki bir necha turidan tashkil topadigan o`simliklarning bir xilligi xos. Bu populyatsiyalarni saqlash uchun inson dastlabki landshaft komponentlarini va butun geosistemaning kuchli o`zgarishiga olib keladigan agrotexnik va meliorativ usullar tizimini amalga oshiradi.

Agrolandshaft qishloq xo`jalik ishlab chiqarishi o`zgartirgan tabiiy landshaftni namoyon etadi. Odatda bunday xolda dastlabki chegaralar saqlanib qoladi. Har qanday agrolandshaft tabiiy landshaft asosida va uning chegaralarida vujudga keltiriladi. Antropogen omillar ta`sirida o`zgarish jarayonida landshaftda yangi tuzilma va yangi sifat hosil bo`ladi. Ular inson tomonidan doimo quvvatlanib turganligi sababli vujudga kelgan landshaftlar tub tabiiy landshaftlarga nisbatan ancha tez rivojlanadi. Agrolandshaftlar ham tabiiy, ham antropogen omillarning birgalikdagi ta`siri ostida rivojlanadi. Ammo shunga qaramasdan antropogen landshaft tub tabiiy landshaft kabi o`zining genetik (vujudga kelishiga ko`ra) bir xilligini ham zonal, ham nozonal jihatdan saqlab qoladi va qaysi zona (yoki balandlik mintaqasi)da vujudga kelgan bo`lsa, shu zonaning tabaqalashuv qonuniyatlariga bo`ysunadi. Ta`kidlab o`tilganidek, agrolandshaftlar vujudga kelgan zonasining qonuniyatlariga bo`ysunadi, ularda shu zona uchun xos bo`lgan jarayonlar kechadi, agrosenoz asosan zona tabiiy sharoitlariga mos bo`ladi.

Agrolandshaftlar odatda boshqa ishlab chiqarish landshaftlariga nisbatan oddiyroq infratuzilmaga, axborot va transport aloqasiga, kommunal xo`jaligiga ega. Shu sababli bu landshaftlar ishlab chiqarish landshaftlariga ko`ra kamroq buzilgan relyefga ega. Qishloqxo`jalik landshaftlari yirik yashil dalalardan iborat bo`ladi. Yonbag`irlarda tuproqlarni yuvilishdan asraydigan g`ovlar (valiki) bilan o`raglan, mevali ekinlar yetishtiriladigan pog`onasimon maydonchalarni sun`iy yaratish tog` qishloq xo`jalik landshaftlari uchun xos.

Agrolandshaft tabiiy landshaftdan qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi ta'sirida bo'lishi va uning komponentlarining muayyan darajada o'zgarganligi bilan farq qiladi

Agrolandshaftni tashkil etuvchi qismlari bir-biri bilan to'g'ri va teskari aloqalar vositasi bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi. Shu sababli kichik sistemalar o'zaro va butunlay optimal o'zaro bog'lanishda bo'lganda va bu o'zaro aloqa to'liq uyg'unlikka erishilganda (yetganda) agrolandshaftning vujudga kelishi imkoniyati bo'ladi. Agrolandshaftda qishloq xo'jalik ekinzorlari asosiy, ekologik infrastruktura (ya'ni ekologik karkas - sinch) tobe strukturaviy elementlar bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, agrolandshaftlar uchun komponentlarning kuchli darajada o'zgartirilganligi va bu landshaftlarning tub tabiiy landshaftlardan farq qilishi xosdir.

Agrolandshaftlar tabiiy landshaftlarning chegaralarida vujudga keladi, ammo ulardan quyidagi muhim xususiyatlari bilan faqr qiladi:

- agrolandshaft qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi ta'sirida bo'ladi;
- agrolandshaft band qilgan hududning katta qismida agrofitosenoz hukumronlik qiladi;
- agrolandshaftda uni tashkil etuvchi deyarli barcha komponentlar insonning xo'jalik faoliyati tufayli o'z xususiyatlarini o'zgartiradi va o'zaro muvofiqlashadi;
- barcha ekosistemalar soddalashadi;
- tabiiy va sotsial-iqtisodiy geosistemalar birgalikda mavjud bo'ladi;
- tabiiy jarayonlar va hodisalar hamda sikllar tabiiy muhitdagiga nisbatan tezroq kechadi;
- jarayonlarning noritmliligi xos;
- agrolandshaftda kimyoviy muvozanat (kimyoviy o'g'itlardan foydalanich va zarali kimyoviy moddalarning top'lanishi) buziladi.

Agrolandshaftda agrosistemalar barcha energiyasining antropogen buzilishlari sodir bo'ladi. Tabiiy trofik aloqalar, energiya piramidasi qonuni buziladi. Mahsulotning 90%igacha qismi olinadi (chiqariladi), yo'qotish tuproqqa o'git berish bilan to'ldiriladi. Yashil inqilobda energetik xarajatlar har qanday holda hosildorlikni o'sishiga nisbatan ko'p bo'ladi. Shu sababli barcha agrolandshaftlarda qishloq xo'jalik foydalanish energetik samarasining pasayish qonuni amalda bo'ladi; qishloq xo'jalik mahsulotining har bir qo'shimcha birligiga tobora oshib boradigan antropogen energiya zarur bo'ladi.

Dehqonchilik agroladshafti suksession jihatdan juda yosh hosila bo'lishi sababli uning bologik mahsuldorligi har qanday klimaks sistemasidagidan yuqori bo'lsada, kunning barqarorligi kuchsiz (kam). Bu yerda suksession yosharish qonunining amal qilishini kuzatamiz. Agrolandshaftdagi o'simlik turkumlari asosan ekologik jihatdan ishonchsiz, ammo juda mahsuldor bir yillik o'simliklardan iborat bo'ladi.

Agrolandshaftlarda mevali daraxtlar, rezavor butalar, uzumzorlar ancha kam ulushda bo`ladi. Shunday qilib, umuman olganda agrosehoz – bu inson tomonidan yaratilgan o`simlik turkumi bo`lib, kam ekologik ishonhlilikka ega, ammo ayni paytda yuqori mahsuldorlikka ega.

Agrolandshaftlarni inson va tabiatning optimal hamkorligiga asoslangan doimiy antropogen tartbga solish va boshqarish kerak bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Мильков Ф.Н. Сельскохозяйственные ландшафты, их специализация и классификация.// Вопросы географии. 1984. №124. С.24-34.

2. Николаев В.А. Проблемы регионального ландшафтоведения. -М.: МГУ, 1979. -160 с.

3. Николаев В.А. Концепция агроландшафта // Вестник МГУ. Сер. 5. География. 1987. №2. С.22-27.

Muallif haqida ma'lumotlar

1. Nazarov Maqsud Geldiyorovich

2. Qarshi davlat universiteti

3. kafedra mudiri

4. g.f.f.d. (PhD)

5. dotsent

6. +998996663810

7. mgnkd@mail.ru

1. Назаров Максуд Гельдиёрович

2. Каршинский государственный университет

3. г.ф.ф.д. (доктор философии)

4. доцент

5. +998996663810

6. mgnkd@mail.ru

1. Nazarov Maksud Geldiyorovich

2. Karshi State University

3. g.f.f.d. (PhD)

4. associate professor

5. +998996663810

6. mgnkd@mail.ru